# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

7
2023

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

7491
ISSN: 2992-8982

TDIU
1931
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan ....6
**Raekwon Chung**, Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari....8
**Nodira Shotursunova,** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari....12
**Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,** t.f.n., dotsent

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari....16
**Egamov Zoxid Baxtiyarovich,** bosh mutaxassisi

Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development....26
**Muratova Muzayana,** Teacher

Анализ состояния применения механизма инновационного управления
инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли....34
**Кучаров Аброр Сабиржанович,** профессор; **Динара Нурмамад кизи Ишманова,** доцент; **Тю Константин Геннадьевич,** соискатель

Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills

of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy....39
**Nargiza Samandarova Muxammadovna,** Teacher

The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy....47
**Ikromov Sayidolim,** Teacher

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari....54
**Rasulova Nigora Yusupovna,** kafedra assistenti

Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati....58
**Jontemirova Iroda Ikrom qizi,** talaba

Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni....61
**Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna,** talaba

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati....64
**Raxmanov M. A.,** tayanch doktorant

Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education....68
**Tukhtaeva Shakhnoza,** Teacher

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari....75
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** kafedra dotsenti; **Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli,** tayanch doktoranti

Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash....79
**Berkinov Bozorboy,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor; **Qulmatova Sayyora Safarovna,** PhD; **Ruxsatova Rushana O'ktamovna**, erkin tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari....86
**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari....97
**G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich,** i. f. d., professor; **Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich,** i. f. f. d. (PhD)

Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari....102
**Raxmanov Mexridin Sindarovich,** kafedra dotsent v. b.

Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi....106
**Ortiqov Uyg'un Davlatovich,** kafedra dotsenti, i.f.n.

Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания....115
**Марданова Барно Асатуллоевна,** докторант

Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan....119
**Aziz Zikriyoev,** PhD

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya
va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi....129
**Kambarova Sh. M.** i.f.b.f.d. PhD

Xalqaro dividend siyosati tajribalarida “S&P 500 dividend aristocrats” amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo‘llash imkoniyatlari ........134
**Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna,** dotsent

Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo‘llari ........139
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; **Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna,** talaba

Byudjyetdan tashqari mablag‘lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli ........147
**Norov Akbar Ruzimamatovich**

O‘zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili ........151
**Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich,** i.f.f.d.(PhD)

Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli ........158
**Xudayarova Maftuna Shavkatovna,** tayanch doktorant

Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi ........164
**Karimova Shirin Zoxid qizi,** tayanch doktorant

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta’minlash ........168
**Shakirova Nigora Axralovna,** kafedra dotsenti v.b.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida ........172
**Raximbayev Akmal Azatboyevich,** mustaqil tadqiqotchi

Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management ........177
**Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna,** PhD

Obligatsiyalar bozorining paydo bo‘lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati ........182
**Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li,** tayanch doktorant

Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati ........186
**Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich,** mustaqil izlanuvchi

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari ........195
**Tojiyev Sardor Dilmurod o‘g‘li**

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida sug‘urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi ........199
**Abduturapova Dildora Farxodjon qizi,** tayanch doktorant

Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili ........205
**Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich,** 3 st year doctoral student

Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma’muriyatchiligi faoliyati tahlili ........210
**Tashmuxamedova Yayra,** tadqiqotchi

Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance ........213
**Rakhimova Gulnoza,** Teacher

Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия) ........218
**Искендир Аккуралай Абдиуалиевна,** докторант

Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri ........222
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna,** kafedra dotsenti; **Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi**

Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ........228
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант

Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги ........233
**Рашидов Рахимжон Искандарович,** в.и.о доцента; **Якубова Шамшинур Шухратовна,** к.э.н., доцент, докторант (DSc)

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta’minlashda sug‘urtaning o‘rni ........240
**Nomozova Qumri Isoyevna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari........248
**Nazarov Qilich Xolmuradovich,** kafedra assistenti

Bank moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda huquqiy mexanizmlarning o‘rni ........255
**Akbarov Behzodhon Ulug‘bek o‘g‘li,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari ........262
**Do‘sanov Doniyor,** magistr

Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar ....269
**N. N. Ro'ziyev**

Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan ....277
**Sattorova Nasiba G'anijon qizi,** Teacher

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati ....284
**Murodova Dilnoza Choriyevna,** PhD

Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish ....288
**Gadoyev So'hrob Jumakulovich,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari ....295
**M. A. Saparova,** talaba

Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров ....299
**Очилова Хилола Фармоновна,** к.э.н., доцент

Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development ....304
**Vafoyeva Dilafruz,** Teacher

O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari ....311
**Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li,** katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili ....316
**Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna,** tayanch doktorant

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari ....323
**Xalilova Nafisa Komilovna,** magistrant

Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba ....327
**Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li,** tayanch doktarant

Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров ....334
**Джурабаев Отабек Джурабаевич,** доцент кафедры

Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана ....341
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri ....349
**Jumabayeve Akmole Sheraliyevich,** magistrant

Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег ....354
**Бахромов Мирзаахмад Рустам угли,** студент; **Абдикаримова Динара Рустамхановна,** научный руководитель, д. э. н. (DSc)

Systematic mapping study of higher education in green development context ....361
**Asqarova Feruza Abdullaevna,** Senior Teacher

O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ....368
**Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li,** kafedra o'qituvchisi; **Shaymanova Nigora Yusupovna,** tayanch doktoranti

Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации ....373
**Д. К. Исмагилов,** кандидат педагогических наук, доцент

Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development ....377
**Shodmonkulova Shahlo,** PhD student

Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi ....384
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi

Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari ....390
**Voxidov Oybek Rozikovich,** mustaqil tadqiqotchisi

Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy ....398
**Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli,** Teacher

Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari ....406
**Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna**, mustaqil izlanuvchi (PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# TRANSPORT LOGISTIKA XIZMATINI EKSPORTNI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIRI



**Jumabayeve Akmole Sheraliyevich**
DeVry Universiteti magistri

Annotatsiya: Maqolada tijorat bankining aktivlari va passivlarini boshqarishning mohiyati va ahamiyati ochib berilgan, turli iqtisodchilar nuqtayi nazaridan menejment ta'riflarining qiyosiy tahlili berilgan. Tijorat bankining aktivlari va passivlari tarkibi tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi va aktiv va passivlarni boshqarishda likvidlikni oshirish va riskni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: aktivlarni boshqarish, passivlarni boshqarish, balans tuzilishi, likvidlik, risk, GAP tahlili, majburiyatlar, foiz stavkasi riski.

Аннотация: В данной статье представлена информация, направленная на развитие экспортной деятельности путем совершенствования услуг транспортной логистики в Узбекистане. Также были проанализированы процессы расширения транспортного обслуживания, оказываемого в Узбекистане с учетом опыта развитых зарубежных стран.

Ключевые слова: транспортное обслуживание, логистическая инфраструктура, система электронного обмена, экспортная деятельность, международные транспортные коридоры, экспортные субсидии, экспорт сельскохозяйственной продукции, экспорт легкой промышленности, зарубежный опыт экспортной деятельности.

Abstract: This article provides information aimed at developing export activities by improving transport logistics services in Uzbekistan. The processes of expanding transport services provided in Uzbekistan were also analyzed, taking into account the experience of developed foreign countries.

Key words: transport services, logistics infrastructure, electronic exchange system, export activities, international transport corridors, export subsidies, agricultural exports, light industry exports, foreign experience in export activities.

## KIRISH

Mamlakat eksport faoliyatini takomillashtirish oqibatida yalpi ichki mahsulot hajmi oshib bu esa o'z navbatida bo'sh ish o'rinlarini paydo bo'lishiga va aholi daromadlarining oshishiga sabab bo'ladi. Eksport faoliyatini turli xil yo'llar bilan davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmlari mavjud. Eksportga taransport logistika xizmatini ko'rsatishni zamonaviy ko'rinishga olib kelish, O'zbekistonda ko'rsatilayotgan taransport logistika xizmatlarini dunyo standartlariga moslashtirish, transport logistika xizmatini raqamlashtirish orqali ushbu xizmatlarni narxini ya'ni ta'rif stavkalarini pasaytirish natijasida eksport qiluvchilarning joriy xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish orqali ularni xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash kabi muhim jarayonlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur. Iqtisodiy tarqaqqiyotga erisha boshlagan Xitoy va Hindiston kabi davlatlarda eksportga ko'rsatilayotgan transport logistika xizmati tajribasini O'zbekistonga tadbiq etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali mamlakatimizdagi barcha hududlarni ichki imkoniyatlarini eksportga yo'naltirish orqali mamlakat eksport hajimini oshirishga qaratish lozim.

O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish aynan eksport qiluvchilarni kreditlash jarayonida bir muncha salbiy vaziyat mavjud bo'lib, bugungi kunda tijorat banklarida savdo kreditlari bo'yicha foiz stavkalari va garov ta'minoti miqdorining yuqoriligi hamda kredit shartlarining murakkablikligi sababli ko'plab eksport qiluvchi korxona va tashkilotlar uchun eksport faoliyatlarini moliyalashtirishda qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eksportni takomillashtirish va unga tarnsport-logistika xizmatlarini koʻrsatishni takomillashtirish boʻyicha MDH va xorijiy mamlakatlarda koʻplab tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqolani yozish davomida MDH mamlakatlari olim va mutaxassislaridan A.I.Prishepa, A.O.Petrov, N.N.Shekolinskiy, N.Petrakov , shuningdek xorijiy olim va mutaxassislardan Patrik Messerlin, Xideki Funatsu va A.Karter  ning bu boradagi ilmiy ishlarini taxlil qildik.

## TAHLIL VA NATIJALAR:

Eksport faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanib rivojlangan mamlakatlar tajribasi faqatgina importni jilovlamasdan eksport faoliyati samaradorligini oshirishni oʻzida aks ettirgan. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona iqtisodiy siyosatning muhim bir qismi Yangi Oʻzbekistonning eksport salohiyatini yanada oshirish eksportga koʻrsatiladigan xizmatlarni jaxon standartlariga moslashtirish va rivojlangan davlatlar tajribasini amaliyotga qoʻllashni qamrab oladi. Markaziy Osiyoda iqtisodiy taraqqiyotga erishayotgan davlat sifatida Oʻzbekistonning geografik joylashuvi mamlakat eksport faoliyatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo tajribasiga koʻra eksport faoliyati moliyaviy va moliyaviy boʻlmagan xizmatlar bilan takomillashtiriladi. Yangi Oʻzbekistonda eksportga koʻrsatiladigan moliyaviy xizmatlar bilan bir qatorda moliyaviy boʻlmagan xizmatlarni takomillashtirish juda zarur. Eksport faoliyatiga koʻrsatiladigan moliyaviy boʻlmagan xizmatlarning asosiylaridan biri bu transport-logistika xizmatidir. Eksport faoliyati uchun transport-logistika tizimini takomillashtirish orqali yurtimizning eksport salohiyatini oshirish borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Eksport yuklari Oʻzbekistonda asosan temir-yoʻl transporti orqali tashilishi biz yoritishimiz kerak boʻlgan muammoning bir qismidir. Bilamizki Oʻzbekiston dengizga toʻgʻridan-toʻgʻri chiqish imkoniyatiga ega boʻlmagan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda eksport yuklari asosan temir-yoʻl, avtomobil va aviatsiya transportlari orqali tashiladi. Aviatsiya transport xizmatini tashkil etish va uning xizmati dengiz va boshqa transport xizmatidan anchagina qimmatligi xalqaro raqobat bozorida eksport qiluvchilarni ustunligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Eksport faoliyatini amalga oshirishda eng arzon transport xizmati bu dengiz transporti xizmati hisoblanadi lekin Oʻzbekistonning dengizga chiqish imkoniyatining yoʻqligi mamlakat uchun boshqa ichki imkoniyatlar evaziga eksportni rivojlantirishni taqoza etadi. Eksport faoliyatini takomillashtirishda rivojlangan  xorij tajribasidan foydalanib, xususan AQSH Kanada kabi davlatlardagi transport-logistika tizimini rivojlanish tajribasidan foydalangan holda mamlakat transport-logistika tizimini rivojlantirishni amalga oshirish zarur. Shuningdek Oʻzbekistonning geografik joylashuvini hisobga olgan holda avtomobil transporti xizmatini takomillashtirish orqali eksport salohiyatini oshirish mumkin.

Eksport yuklarini tashish boʻyicha Oʻzbekistonda 2016-2022 yillarda olib borilgan faoliyat taxliliga eʼtibor qaratsak. Havo transporti asosan  “Uzbekistan Airways” AJ tomonidan amalga oshirilib soʻnggi yillarda qatnovlar hajmi kengaytirilgan. Havo transportida qatnovlar Istanbul, Urumchi, Ostrava, Shanxay, Seul, Dehli, Shitsyazyachjuan, Lej yoʻnalishlari boʻyicha kengaygan.

Ushbu kengaytirilgan qatnovlar natijasida oylik yuk tashuvlar daromadi 1,3 mln. dollardan 5,7 mln. dollarga oshgan boʻlsada ushbu xizmatdan faqat mamlakatimizda eksport faoliyati bilan shugʻullanuvchi yirik tadbirkorlik subyektlari foydalangan. Xitoy va Hindiston kabi eksport salohiyati yuqori boʻlgan mamlakatlar tajribasiga koʻra eksport qiluvchilarning barcha qatlami yaʼni yangi eksportni boshlagan tadbirkorlar ham eksport xizmatlaridan bemalol foydalansagina samaradorlik oshishi mumkin. Oʻzbekistonda 2021 yilda aviatsiya transporti orqali yuk tashuvlar hajmini yanada oshirish maqsadida Toshkent - Gonkong - Toshkent - Tel Aviv -Toshkent va Toshkent - Gonkong - Toshkent - Kiyev - Toshkent yangi yoʻnalishlar boʻyicha parvozlarni amalga oshirish orqali 2 ming tonna yuk tashish va 5,8 mln. AQSH dollari miqdorida qoʻshimcha daromad olingan.

Yuk tashishning yuqori narxlari temir yoʻl sektoriga ham xosdir. Jumladan, narxlarning qiyosiy tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, Oʻzbekistonda ishlab chiqaruvchilar 500 kilometrlik masofaga 1 ta standart vagonda yukni (60 tonna toʻqimachilik mahsulotini) 1 kilometrga tashish uchun temir yoʻlchilarga 5,15 dollar toʻlamoqdalar. Qozogʻistonda bu koʻrsatkich 0,93 AQSH dollarini, Qirgʻizistonda 2,65 AQSH dollarini, Tojikistonda 6,83 AQSH dollarini, Turkmanistonda 2,65 AQSH dollarini tashkil etmoqda. Oʻzbekistonda 500 kilometrdan 1000 kilometrgacha masofaga tashish uchun yuk joʻnatuvchilar 2,51 AQSH dollari, Qozogʻistonda 0,68 AQSH dollari, Turkmanistonda 2,60 AQSH dollari toʻlaydilar .

Oʻzbekistonda eksport yuklarini asosiy qismi temir-yoʻl transporti orqali tashiladi. “Innoprom-2021” xalqaro sanoat koʻrgazmasi doirasida “Oʻzbekiston Temir yoʻllari” AJ va Rossiyaning “RJD Logistika” kompaniyasi vakillari oʻrtasida oziq-ovqat mahsulotlarini, shu jumaladan qishloq hoʻjaligi mahsulotlarini muzlatgichli maxsus refrejerator konteynerlarda tashish uchun Agro-Ekspress poyezdlarni tashkil qilishga kelishib olindi. Mazkur yangi yoʻnalish Oʻzbekistonning eksport tashuvlari, ayniqsa meva-sabzavot mahsulotlari eksporti rivojlantirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.




1-diagramma: O‘zbekistonda eksport o‘sish ko‘rsatkichlari

O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati mavjud bo‘lmagan davlatlardan biri ekanligi logistika infratuzilmasini takomillashtirish imkoniyatlari birmuncha chegaralanishi, bu esa o‘z navbatida, tayyor mahsulotlar eksport qilinishida qo‘shimcha xarajatlarga sabab bo‘ladi. Mahalliy eksport qiluvchi korxonalar tashish xarajatlarining 50 foizigacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish mexanizmini tashkil etilishi oqibatida hududlarda eksport qiluvchi korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari hamda ularning soni oshayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mahsulot tannarxidagi transport xarajatlari ulushini kamaytirish eng muhim vazifalardan biridir, chunki sanoat mahsulotining tannarxida transport xarajatlarining oshishi mamlakatimiz tovarlarining raqobatbardoshligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda. Mamlakat ichkarisida yuk tashish xizmatlarining qiymati xalqaro tashish xizmatlarining (shu jumladan tranzit xizmatlarining) qiymati kabi ko‘rsatkichlar nisbatan yuqoriligicha qolmoqda va oxirgi yillarda katta sur’atlarda oshib bormoqda.

Transport vazirligi va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan MDH, Eron va Boltiqbo‘yi davlatlari temir yo‘l ma’muriyatlari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar natijasida 2021 yil uchun bir qator chegirmalar olinishiga erishilgan. Bu esa, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga va O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Transport vazirligi tomonidan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangi “Mozori-Sharif-Qobul-Peshavor” va “Xitoy - Qirg‘iziston -O‘zbekiston” transport va tranzit yo‘laklarini yaratish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, “Mozori-Sharif - Qobul - Peshavor” temir yo‘lining qurilishi O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mamlakatlariga dunyo okeaniga chiqishga eng yaqin yo‘l bo‘lib, Janubiy Osiyo temir yo‘l tizimini Markaziy Osiyo va Yevroosiyo temir yo‘llari bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, mamlakatimiz tranzit salohiyatining keskin oshishiga xizmat qiladi. Loyihani amalga oshirish natijasida Pokistondan O‘zbekistonga yuklarni tashish 35 kun emas, balki 3-5 kunni tashkil qiladi.

“Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘l qurilishi loyihasining amalga oshirilishi Osiyo Tinch okeani va Xitoydan Qirg‘iziston hamda O‘zbekiston orqali yuklarni Yevropa mamlakatlariga tashish uchun yangi xalqaro transport koridorini yaratadi. Qolaversa, yuklarni yetkazib berish vaqti keskin kisqarib, O‘zbekistonning tranzit salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda eksport faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida turli mexanizmalar yaratilgan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 7 maydagi PQ-4707-son qaroriga muvofiq Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasiga mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan subsidiyalar taqdim etiladigan mahsulotlar ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, subsidiyalar taqdim etish miqdorlarini belgilash, shuningdek, mahsulot turi, hajmi va eksport yo‘nalishiga qarab subsidiyaning qat’iy miqdorlari belgilangan.

Ushbu qarorga asosan eksport qiluvchi korxonalar ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilar uchun ularni tashish xarajatlarining 50 foizigacha bo'lgan miqdorini davlat tomonidan subsidiyalash orqali hududlarda eksport qiluvchilar soni yildan-yilga oshmoqda. Bu ko'rsatkichlar, o'z navbatida, mamlakatimiz yalpi milliy mahsuloti hajmi oshishi va aholi bandligini ta'minlashga ijobiy ta'sir etadi. Eksport qiluvchi korxonalar soni oshishi, o'z navbatida, barcha soha va tarmoqlardagi eksport qiluvchi subyektlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini bildiradi. Shuning bilan birga davlat tomonidan logistika infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora-tadbirlarning keng miqyosda amalga oshirilishi eksport qiluvchilar faoliyati samaradorligi oshishiga olib keladi.

Mamlakatimizda 2015 - 2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda modernizatsiyalash dasturi amalga oshirildi, dasturda yuksak xalqaro talablar va standartlarga mos keladigan milliy transport tarmog'ini rivojlantirish sohasida yagona kompleks strategiyani ishlab chiqish, O'zbekistonda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotini mintaqa va jahon bozorlariga istiqbolda olib chiqish talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning xalqaro transport kommunikatsiyalariga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash nazarda tutilgan.

Ushbu Dastur doirasida umumiy qiymati 1580 million AQSH dollaridan oshadigan temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish va aviatransport sohasida bir qator loyihalar amalga oshirildi, shuningdek, umumiy uzunligi 695 kilomertli avtomobil yo'llari barpo etildi va rekonstruksiya qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining ortib borayotgan eksport salohiyati hamda mahalliy mahsulotni sotish bozorlarini kengaytirish zarurligi tashqi savdo yo'nalishlarini yanada diversifikatsiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, O'zbekiston Respublikasining eksport mahsuloti istiqbolli xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlaydigan maksimal darajada samarali, muqobil tranzit yo'laklarini shakllantirish borasida qo'shimcha ildam choralar ko'rilishini taqozo etmoqda.

Eksport yuklarini tashish uchun mamlakatimizda mavjud salmoqli tranzit salohiyati to'liq darajada ishga tushirilmagan. Vujudga kelgan tranzit va tarif siyosatidagi nomaqbullik qo'shimcha ravishda tranzit yuk oqimini jalb etishga to'sqinlik qilmoqda. Temir yo'l transporti xizmati qo'shni mamlakat Qozog'iston Respublikasidagi tarifdan bir barobarga baland.

Eksport salohiyatini yangi transport-tranzit yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha ikki tomonlama shartnomaviy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va xalqaro ahdlashuvlarni amalda ro'yobga chiqarish, yaqin qo'shni mamlakatlarda O'zbekiston Respublikasining yuklarini samarali tashish va ishlov berish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish ham eng muhim vazifa hisoblanadi.

Logistika markazlari va TIR-parklar tarmog'ini tubdan rivojlantirish, avtotransport vositalari va havo kemalari parkini kengaytirish hamda ularni sifatli yonilg'i-moylash materiallari bilan o'z vaqtida va to'liq hajmda ta'minlash talab etiladi".

So'nggi yillarda O'zbekistonda eksport faoliyati davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlanmoqda, eksport tarkibida qo'shilgan qiymat mavjud bo'lgan mahsulotlar salmog'i oshmoqda. Ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga ko'rsatilayotgan xizmatlar jumladan transport xizmatlari kengaytirilmoqda.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida temir yo'l, havo, avtomobil transportlarida jami yuk tashuvlari hajmi 1,34 mlrd tonna (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,6 foiz), yuk aylanmasi 45,5 mlrd tonna/km ni (103,5 foiz) tashkil etgan. Barcha transportda yo'lovchi tashish hajmi 6,17 mlrd yo'lovchi (102,3 foiz), yo'lovchi aylanmasi 144,7 mlrd yo'lovchi/km ni (105,6 foiz) tashkil etdi. Jami xalqaro yuk tashuvlari hajmi (eksport, import va tranzit) - 53,6 mln tonnani yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil etdi. Bunda, eksport yuklari - 15,4 mln tonna (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,0 foiz), import - 26,0 mln tonna (108,6 foiz) va tranzit -12,2 mln tonnani (123,2 foiz) tashkil etgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, tashqi bozorlarga chiqish uchun eksport faoliyatining transport va boshqa o'zgaruvchan xarajatlarini qisqartirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar zarur, bu esa, ayniqsa birinchi yillarda, eksport oqimlari davomiyligining muhim omili bo'lib, transport infratuzilmasini rivojlantirish, logistika komplekslarini rivojlantirish va xarajatlarni kamaytirish hamda takroriy eksport xarajatlari uchun mablag' to'plash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek eksportni rag'batlantirish orqali mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi oshadi va mamlakatda bo'sh ish o'rinlari hamda eksportga yo'naltirilgan infratuzilma yaratiladi. Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida qulay makroiqtisodiy muhit va ishlab chiqaruvchilar uchun eksportga rag'bat yaratish tizimi shakllanadi. Davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlari davlat darajasida ham hududiy bo'linmalar doirasida ham amalga oshirilishi kerak. Davlat tomonidan turli xil xalqaro fondlardan olinayotgan tashqi qarzning ma'lum qismi albatta eksportga ko'maklashuvchi institutlar tomonidan faqatgina eksport qiluvchilarga yo'naltirilishi zarur.

Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni ragʻbatlantirish agentligi tomonidan mahalliy eksport qiluvchi korxonalar tashish xarajatlarining 50 foizigacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish mexanizmi yanada takomillashtirilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 декабрь карори. “Экспортга кўмаклашиш ва уни рағбатлантиришни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2017 yildagi PQ-3422-son Qarori. “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yoʻnalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”.
3. Прищепа А. И., Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли. Экономика и управление. – 2012. - № 2 (34).с.23-27.
4. Шеколинский Н. Н. Экспортные кредитные агентства как механизм государственной финансовой поддержки. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2016.-142с.
5. Петраков Н., О государственной поддержке Российского экспорта. М.: ЦЕМИ РАН, 2016. 289с.
6. “Транспорт логистика тизимининг бошқарув структурасини такомиллаштириш усуллари” Эргашева К.И "Экономика и социум" №12(103)-1 2022.
7. Oʻzbekiston Respublikasi “Transport vazirligining 2022 yil yakunlari boʻyicha amalga oshirgan ishlar natijalari toʻgʻrisida maʼlumot”.


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi 26-uy.